

## **2022 yil o'quv yilining yozgi ta'tilda chet ellik talabalar uchun chet elga chiqish va qayta kirish bo'yicha muhim ma'lumotlar**

- **Shaxs** : 2022 yil 2 semestrda universitetda o'qishni davom ettiradigan chet ellik talabalar orasida yozgi ta'tilda chet elga chiqmoqchi bo'lgan (rejalashtirayotgan) chet ellik talabalar
  - Lekin, **2022-yilning 2-semestrida bakalavriat bosqichiga kiruvchi abituriyentlar**, ketish shartlariga javob berishi va o'qishga qabul komissiyasi ruhsatini olgan holda chet elga chiqishi mumkin.
  - ※ Mamlakatni ruxsatsiz tark etgan abituriyentlarni o'qihga qabul qilish bekor qilinishi mumkin.
  - **Viza (VISA) vaqtida 2022 yil iyul~avgust oylarida tugaydigan talabalar**, universitet orqali viza uzaytirilishi sababli chet elga chiqib ketishlari mumkin emas.

### **□ Ta'tilda chet elga chiqish uchun ro'yxatdan o'tish ma'lumoti**

#### **1. Chet elga chiqmoqchi bo'lgan talabalar albatta ruxsat olgan holda chet elga chiqib ketishlari mumkin.**


[Universitetdan chet elga chiqish uchun ro'yxatdan o'tish usuli]

- **Ro'yxatdan o'tish davri** : 2022 yil 17 may (dushanba)dan ~ 20 may (juma)gacha  
**<ro'yxatdan o'tish vaqt ichidagina ariza topshirish mumkin>**
- Ro'yxatdan o'tish usuli : Tepada belgilangan vaqt ichida mamlakatlar bo'yicha arizani to'ldirish
- Ehtiyyot chorasi : Albatta belgilangan vaqt ichida ro'yxatdan o'tish va chiqib ketish ma'lumoti o'zgargan talabalar alohida ofisga xabar berishlari shart
- ※ **2022 yil 1 apreldan Immigratsiya idorasidan "Qayta kirish ruxsatnomasi"ni olish bekor qilingan**

2. Oldindan ruxsat olmasdan chiqib ketib va qayta kirib kelgan holda o'qish vizasi bekor qilinadi va akadem ta'til olganda / o'qishda tiklanganda stipendiya olishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.
3. Koreyadan chiqib ketishda va qayta kirishda albatta 'PCR yoki RAT salbiy guvohnomasi'ni taqdim etish shart.
4. Emlashni tugatgan shaxs Q-CODE to'ldirish orqali qayta kirganda karantindan ozod qilinadi.
5. Emlashni tugatgan shaxs chiqib ketishdan oldin sog'lqnii saqlash markazi (보건소)ga borib emlanganlikni tasdiqlovchi hujjatni olishlari kerak.
6. Qayta kirib keluvchi (rejalashtirgan) talabalar Koreya aeroportidan chiqib ketayotganda o'z ID-kartasini topshirmasliklari kerak.  
※ **Qayta kirib keluvchining ID-kartasi topshirilsa, viza bekor qilinadi.**
7. Chiqib ketilgandan keyin Koreyaga qayta kirishda barcha rasmiylash ishlari (kutib olish, PCR testi va boshqalar) uchun harajatlarni shaxs o'z zimmasiga oladi.

8. Karantin (shu jumladan PCR testi sanasi), yotoqxonaga kirish sanasi va o'qish boshlanish sanasini hisobga olgan holda 19 avgust (juma)gacha qaytib kelishni tavsiya qilamiz.
9. 2022 yil 2 semestr yotoqxonaga ro'yhatdan o'tish va joylashish haqida keyinchalik e'lon qilinadi.

**Chet eldan kirib keluvchi uchun karantin sxemasi**



\* **Emlashni tugatganlar karantindan ozod bo'lish uchun mamlakatga kirishdan oldin**

Q-CODE-ni to'ldirishlari kerak

## Kirib kelish va karantin haqida ma'lumot

- "PCR yoki RAT salbiy guvohnomasi"ga (koreys yoki ingliz tilida) ega bo'lgan holda kirib kelish mumkin
  - (※ **Guvohnomasiz kirish taqiqlanadi**)
    - Uchib kelish sanasidan boshlab 48 soat ichida topshirilgan PCR salbiy tasdiqlovchi guvohnomasi yoki 24 soat ichida topshirilgan RAT guvohnomasi qabul qilinadi.
    - PCR yoki RAT salbiy guvohnomasida pasportingiz raqami yoki tug'ilgan sanangiz, ingliz tilida ismingiz va boshqalar pasportdagidek ko'rsatilgan bo'lishi kerak.
    - Qaytib kirishdan oldin PCR yoki RAT testi / salbiy natija guvohnomasini olish haqida batafsil ma'lumot uchun mahalliy elchixonaga (chet eldag'i elchixonalarga) murojaat qiling.
  - **Emlashni tugatgan shaxslar** Koreyaga kirishdan oldin Karantin Axborot Tizimiga (Q-CODE) ma'lumotlarni kiritgandan so'ngina, qaytib kirgandan keyin karantindan ozod qilinadi.

Emlashni tugatgan shaxs uchun mezonlar Koreya yoki Jahan Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST)\* tomonidan shoshilinch ravishda tasdiqlangan vaktsinaning 2-chi qismini olgandan so'ng 14 kun o'tganlar.

\*JSST orqali tasdiqlangan vaktsina : Pfizer, Janssen (Johnson&Johnson), Moderna, AstraZeneca, Xitoyning Sinopharm va Sinovac, Hindistonning Covaxin va Covishield, Covovax.

- Q-CODE to'ldirish sayti : <https://cov19ent.kdca.go.kr/cpassportal/>
- Q-CODE to'ldirgandan so'ng olingan QR kodni Koreyaga kirib kelgandan so'ng aeroportdagi karantin uchun ma'sul shaxsga taqdim etish kerak.
  - ↳ Qog'ozga bosilgan yoki mobil telefonlar orqali skrin-shot qilingan barcha turdag'i QR-kodlar qabul qilinadi.
- ※ **Agarda emlashi tugatgan bo'lib, ammo Q-CODE to'ldirilmagan bo'lsa, kirib kelgandan so'ng albatta karantinga olinish kerak.**
- **Emlanmagan shaxs** mamlakatga kirishdan oldin albatta karantin joyini topib va ta'minlanishi kerak, mamlakatga kirgandan keyin karantin uchun joyda 7 kun davomida karantin o'tkazilishi kerak.
- Kirib kelgandan keyin **PCR yoki RAT testini topshirish kerak**
  - Kirib kelgandan keyin 3 kun ichida, albatta **PCR testini topshirish kerak**
  - Kirib kelgandan keyin 6~7-chi kuni **RAT (\*antigen borligini tasdiqlovchi tezkor test) topshrish maslahat beriladi**
    - ↳ \*RAT tekshiruv usuli : shaxsiy tekshiruv yoki shifoxonaga borish, skrining klinikasida tekshiruv
    - ↳ **Shaxsiy tekshiruv ijobjiy natija bo'lganda**, sog'liqni saqlash markaziga borib PCR testini topshirish.
- Chet eldan barcha kirib keluvchilar aeroportdan tibbiy markaz va uygacha **jamoat transportidan foydalanib** borishlari mumkin.

- Qaytishga tavsiya qilingan sana** : ~ 2022 yil 19 avgust (juma)gacha qaytish tavsiya qilinadi
- 2022 yil 2 semestr va kuzgi chorak boshlanishi** : 2022 yil 29 avgust (dushanba)
- Emlashni tugatganlarni karantindan ozod qilish uchun Q-CODE-ni kiritish bo'yicha eslatmalar**

- Albatta Q-CODE orqali vaktsina emlash tarixi kiritilgandan keyin **karantindan ozod qilinadi**
  - Q-CODE-ga kirib pasport, kirib kelish/turar joy, emlanganlik, PCR testi va sog'liq ma'lumotini kiritish
  - Ma'lumotni kiritganda **PCR salbiy ma'lumotnomasi** va **vaktsina emlanganlik guvohnomasini** albatta **koreys yoki ingliz tilida** yuklash kerak.

※ Ammo, agar guvohnoma koreys yoki ingliz tillarida bo'lmasa, qaytib kirayotganda karantin tekshiruv xodimiga arjimani va tarjimani tasdiqlovchi hujjatni alohida taqdim etishingiz kerak (agar guvohnoma vakolatli tarjima agentligi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, tasdiqlov talab qilinmaydi).
  - **Karantin tekshiruv xodim tasdiqlovchi hujjatlarni talab qilishi mumkin** **PCR yoki RAT salbiy guvohnomasi, emlanganlik guvohnomasi** kirib kelganda albatta taqdim etish kerak.
  - Koreyada vaktsinaning 2-chi qismini olgandan keyin 180 kun o'tgan bo'lsa va 3-chi qismi chet elda olingan holda, mamlakatga kirgandan keyin chet elda olingan 3-chi qism guvohnomasini karantin tekshiruv xodimiga taqdim etgan holda karantindan ozod qilinadi.
  - Agar chet elda emlangan shaxs Koreya sog'liqni saqlash markazi orqali chet elda emlash tarixini ro'yxatdan o'tkazgan (tasdiqlagan) bo'lsa, u mahalliy emlash tarixi bilan bir xil tarzda Q-CODE oldindan xabar berish tizimiga ulanish mumkin.

**Koreya hukumati siyosatiga qarab, kirish tartib-qoidalari va karantin usullari o'zgarishi mumkinligini oldindan sizga ma'lum qilamiz.**